



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№8

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 160 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-avgustda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Smart-logistika texnologiyalarini joriy etish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish tizimini optimallashtirish (Toshkent viloyati misolida).....	14
Mavlanov Sobirjon Pardabayevich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruvning xalqaro tamoyillari asosida boshqaruv sifatini oshirish	20
Sattarov Umirzoq	
Современные банковские продукты	24
Хужамуратов Аббос Мардонович	
Amerika qo'shma shtatlarining ijtimoiy himoya tizimi.....	29
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
Совершенствование рынка услуг высшего образования как фактор повышения занятости населения в условиях цифровой экономики.....	33
Ибрагимов Тимур Ибодуллаевич, Асланова Дилбар Хасановна	
Iqtisodiy fanlarni o'qitishda interaktiv metodlarning qo'llanilishi va ularning samaradorligi.....	39
Kabulov Baxram Kuzibaevich	
Korxonalarda raqobat razvedkasi tizimlarini rivojlantirishda innovatsion raqamli texnologiyalarining o'rni.....	45
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'zbekiston banklarida sun'iy intellekt foydalanish samaradorligini oshirish.....	51
Kamolov Sardorbek Davlatjon o'g'li	
Agrar korxonalar xo'jalik faoliyatida risklarni boshqarish bo'yicha samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishning metodologik asoslari.....	59
Baymirzaev Dilmurod Nematovich	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	66
Исомов Б. С.	
Tashish va saqlash xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish holati.....	70
Rajabov Orzujon Mamasoliyevich	
Ijtimoiy infratuzilmani modernizatsiya qilishda DXSHning o'rni: madaniyat va sport sohasida imkoniyatlar	78
Baykalonov Jalil G'aybulloyevich	
Анализ состояния и перспективы развития активного и спортивного туризма в Узбекистане.....	93
Бойко Фарида Чингисовна, Ивонина Наталья Викторовна	
Переоценка и фальсификация стоимости имущества: международные практики, риски и пути решения.....	99
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
Hudud sanoati tarkibiy o'zgarishlarini prognozlash usuli.....	106
Djumayev Farrux Toshmurotovich	
Углеродный след и декарбонизация промышленности Узбекистана: роль возобновляемой энергетики и международный опыт	111
Авезова Нилуфар Раббанакуюловна, Ощепкова Эльвира Ахтемовна, С.М. Махмудов, А.А. Холиков, Авезова Нилуфар Раббанакуюловна	
The process of developing startups based on management principles	119
Ilxamov Azizbek Yodgor o'g'li	
The impact of economic policy on non-performing loans: the case of Uzbekistan.....	126
Jalalov Mashkhurbek Gaybullo ugli	
Основные направления инвестиционной политики Узбекистана в соответствии со стратегией-2030	134
Исомов Б. С.	



Ko'p kvartirali uylarni boshqaruv organlari tomonidan aholiga sifatli xizmat ko'rsatishni qo'llab quvvatlashni takomillashtirish	138
Umarov Begzodbek Jaloldinovich	
O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishning institutsional asoslari.....	143
Fayzullayev Jonibek Negmatullayevich	
Davlat - xususiy sheriklik loyihalarning samaradorligini oshirish.....	150
Tursunov Imomnazar Egamberdiyevich, Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
O'zbekiston sug'urta bozorida hayot sug'urtasi xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari.....	155
Bazarov Zakir Xonqulovich	



O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA HAYOT SUG'URTASI XIZMATLARINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI



Bazarov Zakir Xonqulovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Sug’urta ishi” kafedrası dotsenti,

PhD G-mail: b.zakir@tsue.uz

ORCID-0009-0006-8004-0644;

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston sug'urta bozorida hayot sug'urtasi xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari, istiqbollari va sohadagi mavjud muammolar chuqur tahlil qilinadi. Hayot sug'urtasi xizmatlari aholining moliyaviy xavfsizligini ta'minlash, uzoq muddatli jamg'arma shakllantirish va ijtimoiy himoyani kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Bozorning jadal rivojlanishiga innovatsion mahsulotlar, raqamli texnologiyalar, xalqaro tajriba va bank-sug'urta integratsiyasi ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, sug'urta madaniyatining pastligi, tarif siyosatining yetarli darajada shakllanmagani, aholining ishonchsizligi va yuqori narxlar kabi omillar bozorning kengayishini cheklab qo'ymoqda. Tadqiqotda shuningdek, hayot sug'urtasining kelajakdagi istiqbollari, jumladan pensiya, mikro va ekologik sug'urta xizmatlari yo'nalishlarida rivojlanish zaruriyati asoslab berilgan. Tarif siyosatining ilmiy asoslanganligi va yagona metodologik yondashuvni shakllantirish ushbu yo'nalishdagi dolzarb masalalardan biri sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: hayot sug'urtasi, sug'urta bozori, investitsion sug'urta, tarif siyosati, sug'urta madaniyati, pensiya sug'urtasi, sug'urta biznesi, sug'urta mukofoti, sug'urta to'lovi, sug'urta summasi.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the development trends, future prospects, and existing challenges in the life insurance services market in Uzbekistan. Life insurance plays a crucial role in ensuring the financial security of the population, forming long-term savings, and strengthening social protection. The rapid growth of the market is positively influenced by innovative products, digital technologies, international experience, and the integration of banking and insurance sectors. However, several factors such as low insurance awareness, underdeveloped tariff policy, public distrust, and high service costs limit the market's expansion. The study also substantiates the necessity of further development in areas such as pension, micro, and environmental insurance services. The scientific justification of tariff policy and the establishment of a unified methodological approach are highlighted as some of the key issues in this field.

Key words: life insurance, insurance market, investment insurance, tariff policy, insurance culture, pension insurance, insurance business, insurance premium, insurance payout, insured amount.

Аннотация: В статье представлен глубокий анализ тенденций развития, перспектив и актуальных проблем рынка страхования жизни на страховом рынке Узбекистана. Услуги страхования жизни играют важную роль в обеспечении финансовой безопасности населения, формировании долгосрочных сбережений и укреплении социальной защиты. Инновационные продукты, цифровые технологии, международный опыт и банковско-страховая интеграция оказывают положительное влияние на стремительное развитие рынка. В то же время, такие факторы, как низкая культура страхования, недостаточно сформированная тарифная политика, недоверие населения и высокие цены, ограничивают расширение рынка. В исследовании также обосновываются дальнейшие перспективы страхования жизни, в том числе необходимость развития услуг пенсионного, микрострахования и экологического страхования. Научная основа тарифной политики и формирование единого методологического подхода обозначены как одна из актуальных проблем в этой сфере.

Ключевые слова: страхование жизни, страховой рынок, инвестиционное страхование, тарифная политика, страховая культура, пенсионное страхование, страховой бизнес, страховая премия, страховая выплата, страховая сумма.



KIRISH

Hayot sug'urtasi bozorini takomillashtirish va uning barqaror rivojlanishini ta'minlash, sug'urta sohasida yangi va istiqbolli xizmatlarni joriy etish, shuningdek, aholining sug'urta tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash zamonaviy sharoitlarda eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan birga, hayot sug'urtasining rivojlanishiga turli omillarning noijobiylik ko'rsatishi, mamlakatimizdagi amaliy holat va unga xos jihatlarni, shu jumladan xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasini inobatga olib, ushbu sohada yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish va tatbiq etish zaruriyati yuzaga keladi. Natijada, hayot sug'urtasining har bir mumkin bo'lgan mijoz uchun jozibadorligini oshirish orqali uzoq muddatli va barqaror taraqqiyotiga hissa qo'shish mumkin bo'ladi.

Bugungi globallashib borayotgan iqtisodiy muhitda jamiyatning innovatsion hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlaydigan asosiy omil sifatida inson kapitali asosiy rolni egallaydi. Jumladan, yurtimizda har bir fuqaroning kuchli ijtimoiy kafolatlar bilan ta'minlanishi, ularning salomatligi va hayotining sug'urta tizimi orqali himoyalaniishi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'nalishidagi muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Dunyo amaliyotidan kelib chiqilsa, hayotni sug'urtalash aholining iqtisodiy-ijtimoiy barqarorligini ta'minlaydigan zamonaviy va ishonchli mexanizmlardan biri sifatida shakllanmoqda hamda ko'plab xorijiy mamlakatlarda moliyaviy tizimning ajralmas tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ayni paytda milliy va xorijiy tajribalarni chuqur tahlil qilish orqali O'zbekiston sug'urta bozorida hayot sug'urtasi xizmatlarining rivojlanish holati, dinamikasi va istiqbollarni baholash, ushbu sohani rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash va ularning intensivligini o'rganish, shuningdek, mavjud tizimdagi muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va yechimlarni ishlab chiqish — dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda hayot sug'urtasi xizmatlarining iqtisodiy tizimdagi o'rni va ahamiyati yuzasidan bir qator yetuk mutaxassislar tomonidan chuqur ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, mamlakat milliy iqtisodiyotida hayotni sug'urtalash tizimining shakllanishi, uning moliyaviy barqarorlikka ta'siri, aholi farovonligi va jamg'arma mexanizmlarini mustahkamlashdagi roli bo'yicha S.L. Efimov, A.K. Shixov, T.A. Fedarova, A.F. Modonov kabi taniqli xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ilmiy-nazariy va amaliy yondashuvlar asosida tahliliy ishlar amalga oshirilgan.

O'zbekistonlik yetakchi iqtisodchi olimlar tomonidan raqamli sug'urta mahsulotlarining nazariy asoslari, funksional xususiyatlari va amaliy joriy etish mexanizmlari bo'yicha izchil ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, X.M. Shennayev, I.K. Ochilov, S.E. Shirinov, I.G'. Kenjayev, N.A. Mavrulova, I. Abduraxmonov kabi tajribali mutaxassislar zamonaviy texnologiyalarni sug'urta sohasiga integratsiyalash, raqamli platformalar asosida xizmat ko'rsatishni takomillashtirish, shuningdek, elektron sug'urta tizimlari orqali mijozlarga qulaylik yaratish kabi dolzarb yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston sug'urta bozorining zamonaviy holatini chuqur o'rganishda statistik axborotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, ilg'or xorijiy amaliyot hamda mamlakatning makroiqtisodiy sharoitlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Tadqiqot davomida 2020–2024-yillar oralig'ida hayot sug'urtasi xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari – jumladan, yig'ilgan sug'urta mukofotlari, amalga oshirilgan to'lovlar va ularning yalpi ichki mahsulot (YalM)dagi nisbiy ulushi asosida ushbu yo'nalishning o'sish tendensiyalari, barqarorlik darajasi va muvozanatlilik holati baholandi.

Statistik tahlil natijalari hayot sug'urtasi bozorida qisqa muddatli keskin o'zgarishlar mavjudligini, 2022-yilda rekord darajadagi ko'rsatkichlarga erishilgan bo'lsa-da, keyingi yillarda jiddiy pasayishlar yuz berganini ko'rsatdi. Bunday o'zgarishlar bozorning o'zgaruvchanligiga va institutsional barqarorlikning yetarli emasligiga ishora qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraktsiya, taqqoslash, analiz va sintez, statistik guruhlash usullaridan foydalanildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi davrda hayotni sug'urtalash sug'urta tizimining muhim va yirik sohasi sifatida dunyo tajribasida keng qo'llanilmoqda. Ilg'or davlatlar amaliyotida hayot sug'urtasi orqali jalb etilgan sug'urta badallari boshqa turdagi sug'urta yo'nalishlariga nisbatan sezilarli ustunlikka ega. Masalan, AQShda umumiy yig'ilgan sug'urta badallari



miqdorida hayot sug'urtasining ulushi 50 foizdan ortiqni tashkil etadi. O'zbekiston misolida esa hayot sug'urtasi xizmatlari bozorida so'nggi yillarda ma'lum o'sish sur'atlari kuzatilmoqda. Garchi hayot sug'urtasi bo'yicha yig'ilgan badallar hajmi yildan-yilga o'rtacha ikki barobarga oshgan bo'lsa-da, ularning YalMdagi salmog'i atigi 0,1 foizni tashkil qilmoqda. Bu esa mavjud bozor salohiyatidan to'liq darajada foydalanilmayotganini ko'rsatadi. Boshqa tomondan, rivojlangan mamlakatlarda bu ko'rsatkich kamida 2 foizdan 10 foizgacha yetadi.

Dunyoning barcha rivojlangan mamlakatlarida Unit Linked investitsion sug'urta mahsulotlari sug'urta va investitsiya xizmatlari bozoridagi eng mashhur va ommaviy vositalardan biri hisoblanadi, chunki, ular ushbu ikki sohaning muvaffaqiyatli simbiozidir. Hayot sug'urtasi bo'yicha xorijiy amaliyotning ko'rsatishicha, Sharqiy va G'arbiy Yevropa mamlakatlari hamda AQShda hayot sug'urta tarmog'ining YalMdagi salmog'i 2- 10 foizni tashkil qiladi. O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich YalMga nisbatan 0,04-0,1 foiz. AQShda tuzilgan hayot sug'urta shartnomalarining 60 foizi Unit Linked dasturlariga tug'ri keladi. Yevropada hayot sug'urtasiga yunaltilgan barcha mablag'larning o'rtacha 30-70 foizi ushbu segmentga tegishli. Masalan, Slovakiyada aynan Unit Linked hayot sug'urtasining ulushi YalMga nisbatan 1,5 foiz, hayot sug'urta bozorida 30 foiz, Vengriyada YalMga nisbatan 1,6 foiz, hayot sug'urta bozorida 66 foiz, Estoniyada esa YalMga nisbatan 2,7 foiz, hayot sug'urta bozorida 60 foiz.



1-rasm. O'zbekiston sug'urta bozorida hayot sug'urtasi xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari¹

Tadqiqot davomida O'zbekiston sug'urta bozorida hayot sug'urtasi xizmatlarining rivojlanishiga oid bir qator muhim xulosalarga kelindi. Jumladan, bugungi kunda hayot sug'urtasi bozorining kengayib borayotganligi, bu sohaning aholining moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi o'rni kuchayib borayotgani kuzatilmoqda.

Birinchidan, hayot sug'urtasi xizmatlarining asosiy rivojlanish tendensiyalari sifatida jamg'arma va investitsion sug'urta mahsulotlariga bo'lgan talabning ortib borishi, raqamli xizmatlarning joriy qilinishi, korporativ sug'urta paketlarining kengayishi, aholining moliyaviy savodxonligining oshishi, hamda uzoq muddatli sug'urtalashga bo'lgan ishonchning ortib borayotgani qayd etildi.

Ikkinchidan, ushbu tendensiyalarga ta'sir etuvchi muhim omillar sifatida quyidagilar belgilandi: aholining demografik tuzilmasi, iqtisodiy barqarorlik, hukumat tomonidan ko'rsatilayotgan soliq va institutsional rag'batlar, raqamli infratuzilmaning rivojlanishi, sug'urta kompaniyalarining innovatsion yondashuvlari hamda xalqaro tajribaning milliy amaliyotga joriy etilishi.

Uchinchidan, O'zbekiston sug'urta bozorida hayot sug'urtasining kelajak istiqbollari yuqori baholanmoqda. Xususan, aholining uzoq muddatli moliyaviy himoyasini ta'minlashga bo'lgan ehtiyoj, ijtimoiy sug'urtaning mustahkamlanishi, pensiya tizimi bilan integratsiyalashuv, mikro sug'urta va investitsion mahsulotlarning rivojlanishi ushbu segmentning yanada kengayishiga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, mavjud muammolar - aholining moliyaviy savodxonligining pastligi, sug'urta madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi, raqobat muhitining zaifligi, soliq imtiyozlarining yetarli emasligi kabi qiyinchiliklar - bozorning to'laqonli ishlashiga to'sqinlik qilmoqda. Bu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagi yechimlar taklif qilinadi:

- aholi o'rtasida moliyaviy ma'rifat ishlarini kuchaytirish,
- hayot sug'urtasiga oid soliq imtiyozlarini kengaytirish,
- raqamli texnologiyalarni ommalashtirish,
- sug'urta kompaniyalari faoliyatining shaffofligini oshirish,
- davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish.

Umuman olganda, hayot sug'urtasi xizmatlari O'zbekiston moliya bozorining barqaror va istiqbolli segmenti sifatida shakllanmoqda. Mazkur xizmatlarni ommaviylashtirish, ijtimoiy himoya tizimiga integratsiyalash va

¹ Tadqiqotchi tomonidan mustaqil tayyorlandi




zamonaviy iqtisodiy talablar asosida takomillashtirish kelgusida nafaqat sug'urta bozorini, balki butun jamiyat farovonligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

So'nggi yillarda O'zbekiston sug'urta bozorida hayot sug'urtasi segmentining rivojlanishida muayyan o'zgarishlar kuzatilmoqda. Bu yo'nalish aholining ijtimoiy himoyasini ta'minlash, moliyaviy barqarorligini oshirish va uzoq muddatli jamg'arma imkoniyatlarini kengaytirishdagi muhim vositalardan biri sifatida qaralmoqda. Raqamli iqtisodiyotning joriy etilishi, moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatining oshishi va aholining sug'urta madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar ushbu bozor segmentining faollashuviga turtki bo'lmoqda.

2020–2022-yillar davomida hayot sug'urtasi mukofotlari va to'lovlarida sezilarli o'sish kuzatilgan bo'lsa, 2023–2024-yillarda ushbu ko'rsatkichlar keskin pasaygan. Bu holat bozorda qisqa muddatli o'zgaruvchanlik, tartibga solishdagi ehtimoliy o'zgarishlar yoki iste'molchilarning ishonch darajasiga ta'sir qiluvchi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ayniqsa, 2022-yilda hayot sug'urtasi mukofotlari 1 559,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2020-yildagi ko'rsatkichdan 4,7 barobar yuqori bo'lgan. Ammo 2023-yilda bu ko'rsatkich 322,5 mlrd so'mgacha tushgan, 2024-yilda esa 286,4 mlrd so'mni tashkil qilgan.

To'lovlar koeffitsiyenti bo'yicha ham o'zgarishlar jiddiy bo'lib, 2023-yilda u 140,7 %ni tashkil qilgan, ya'ni kompaniyalar yig'ilgan mukofotlarga nisbatan ko'proq to'lov amalga oshirgan. Bu esa ularning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, hayot sug'urtasi mukofotlarining yalpi ichki mahsulot (YalM)dagi ulushi va ularning umumiy sug'urta mukofotlari tarkibidagi salmog'i 2022-yildan keyin sezilarli darajada kamaygan.

Shu bois, hayot sug'urtasi xizmatlarining rivojlanish tendensiyalarini chuqur tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash va istiqbolli yo'nalishlarni belgilash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.



2-rasm. O'zbekistonda hayot sug'urtaga oid asosiy ko'rsatkichlar tahlili²

O'zbekiston sug'urta bozorida hayot sug'urtasi xizmatlari 2020–2022-yillar oralig'ida barqaror va sezilarli o'sishni ko'rsatgan bo'lsa-da, 2023–2024-yillarda bu yo'nalishda keskin pasayish kuzatilgan. Quyidagi ilmiy xulosalar chiqarildi:

Bozor o'zgaruvchanligi yuqori – Hayot sug'urtasi mukofotlari 2022-yilda maksimal darajaga yetgan bo'lsa-da, keyingi yillarda 5 baravarga yaqin qisqargan. Bu esa bu segmentdagi barqarorlikning yetarli emasligini ko'rsatadi.

To'lovlar koeffitsiyentining keskin oshishi – 2023-yilda to'lovlar yig'ilgan mukofotlardan oshib ketgani sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligiga tahdid soluvchi omil bo'lib xizmat qilgan.

Hayot sug'urtasining umumiy sug'urta bozorida ulushi pasaymoqda – 2022-yilda umumiy mukofotlar tarkibida 33,1 %ni tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 3,0 %gacha kamaygan.

Yalpi ichki mahsulotdagi ulushi kamaygan – Hayot sug'urtasi mukofotlarining YalMdagi ulushi 2022-yilda 0,157 % bo'lsa, 2024 yilda atigi 0,020 % bo'lgan.

Kompaniyalar soni o'zgarmagan – 2020–2024-yillar davomida hayot sug'urtasi bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar soni o'zgarishsiz – 8 ta darajasida qolgan, bu esa raqobat muhitining kengaymaganidan dalolat beradi.

2 <https://napp.uz/uz/pages/malumat> sayt ma'lumotlari asosida tayyorlandi.



Umuman olganda, hayot sug'urtasi xizmatlari bozorida qisqa muddatli keskin o'zgarishlar, muvozanatsizliklar mavjud. Bu holatga javoban, ushbu xizmatlarni ommalashtirish, iste'molchilarning ishonchini tiklash, yangi innovatsion va moslashuvchan mahsulotlar joriy qilish hamda raqamli transformatsiyani jadallashtirish dolzarb vazifalar sifatida qaralishi lozim.

Hozirgi kunda O'zbekiston qonunchiligida hayot sug'urtasi bo'yicha to'lovlarni kafolatlaydigan hech qanday mexanizm mavjud emas. Ayni paytda, sug'urta to'lovlarini kafolatlash tizimini tashkil etilishi hayot sug'urta xizmatlari bozorini jadal rivojlantirish uchun sharoit yaratadi va aholining hayot sug'urtasiga bo'lgan ishonchini oshiradi. Hayot sug'urtasining yana bir o'ziga xos xususiyati, umumiy sug'urtadan farqli ravishda, unda to'langan sug'urta mukofotlari qaytarilish xususiyatiga ega, ya'ni sug'urta hodisasi muqarrar. Jamg'ariladigan hayot sug'urtasida, hayotni umrbod sug'urta qilishda, investitsion hayot sug'urtasida, pensiya sug'urtasida katta mablag' yig'iladi va ular foizi bilan to'liq qaytariladi. Bu esa qo'shimcha kafolatlar tizimini talab qiladi. Shu sababli, sug'urta to'lovlarini kafolatlash tizimini yaratish fukarolarning hayot sug'urtasiga uzoq muddatli jamg'armalarini yuqotish xavfini va sug'urtalovchilarning to'lovga layoqatsizligi yuzaga kelganda sug'urta himoyasidan maxrum bo'lishining oldini oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR:

O'zbekiston sug'urta bozorida hayot sug'urtasi xizmatlari so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlanayotgan bo'lsa-da, bu segment hali to'liq shakllanmagan va uning bozor salohiyatidan to'liq foydalanilmayapti. Hayot sug'urtasining moliyaviy barqarorlik, ijtimoiy himoya va uzoq muddatli jamg'arma shakllantirishdagi o'ri tobora kuchaymoqda. Raqamli texnologiyalar, xalqaro tajribaning joriy qilinishi va innovatsion mahsulotlarning paydo bo'lishi ushbu xizmatlar ommalashuviga turtki bermogda.

Xususan, 2022-yildan keyingi pasayishlar bozorning o'zgaruvchanligini ko'rsatadi va bu holat iste'molchi ishonchini tiklash zarurligini taqozo etadi.

Ilmiy tahlillar shuni ko'rsatdiki, hayot sug'urtasi xizmatlari aholining uzoq muddatli moliyaviy xavfsizligini ta'minlash, jamg'arma shakllantirish, ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash va milliy iqtisodiyotda investitsiya resurslarini kengaytirish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, ushbu bozor segmentida quyidagi muammolar mavjud:

- yig'ilgan sug'urta badallari hajmining pasayishi;
- hayot sug'urtasining umumiy sug'urta bozoridagi va YalMdagi ulushining kamayishi;
- kompaniyalar sonining o'zgarmasligi tufayli raqobat muhitining sustligi;
- to'lovlarni kafolatlovchi mexanizmning yo'qligi.

Xalqaro amaliyotda, ayniqsa AQSh, Estoniya, Vengriya va Slovakiya tajribasida hayot sug'urtasi xizmatlari orqali jamg'arma va investitsion faoliyatni birlashtirgan Unit Linked mahsulotlarining muvaffaqiyati yuqori bo'lib, bu xizmatlarning YalMdagi ulushi 1,5–2,7 % gacha yetgan. O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich 0,02–0,1 % atrofida bo'lib, bozor salohiyatining to'liq ro'yobga chiqmayotganini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. С.Л.Ефимов ва бошқалар. Словарь страховщика-М.Экономика, 2000-322 б
2. А.К.Шихов., Страхование: учебное пособие-М.Юнити-Дана, 2001.-322 с.
3. Федарова А.Т. ва бошқалар. Страхование (2-нашр). М.:Магистр, 2006. 251 б.
4. Модонов А.Ф. Развитие обязательного медицинского страхования в регионе. Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук: 08.00.10. – Иркутск; 2002. С. 20.
5. X.M.Shennayev, I.K.Ochilov, S.E.Shirinov, I.G'.Kenjayev. Sug'urta ishi. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2022.
6. N.A.Mavrulova: Sug'urtada axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma. Toshkent – 2022.
7. И.Х.Абдурахмонов Суғурта соҳасида рақамли технологияларни қўллаш истиқболлари. // “Moliya va Bank ishi” O'zbekiston respublikasi bank-moliya akademiyasi ilmiy jurnali., 2022. 1-сон. (2022), 95-99



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>